

**MAQSUD SHAYXZODA ASARLARIDA JALOLIDDIN
MANGUBERDI OBRAZI**

*Ikramova Feruza Xayrullayevna (Toshkent Davlat Transport Universiteti
dotsenti) feruza.ikromova71@gmail.com*

*Imomova Mohidil Furqat qizi (Toshkent Davlat Transport Universiteti
YMAE-7r guruhi talabasi) mohidilimomova05@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikki qardosh xalq farzandi Maqsud Shayxzodaning dramaturglik faoliyati "Jaloliddin Manguberdi" dramasi misolida tahlilga tortilgan. Maqolada adibning murakkab hayot yo'li va ijodiy kamoloti haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: drama, keskin dramatizm, shekspirona ruh, tarixiy-falsafiy asar, poetik mahorat, ma'rifat.

Annotations: The article analyzes the dramatic activities of Maksud Shaikhzod, the son of two fraternal peoples, on the example of the drama "Jaloliddin Manguberdi". The article reflects the difficult life path and creative maturity of the writer.

Key words: drama, sharp drama, Shakespearean spirit, historical and philosophical work, poetic skill, enlightenment.

Nizomiy Vatanida tug'ilgan Shayxzoda falakning gardishi bilan o'zbek tuprog'iga kelib qolib, hayotining eng mas'ud va shu bilan birga fojiali kunlarini shu yerda kechirdi. Biz buni adib unrining so'nggi yillarida yozgan quyidagi misralar orqali tez ilg'aymiz: "Ammo tole meni doim erkalamadi, Ba'zan zamon yilni yilga hech ulamadi. Sahrolarga duch keldimki, na irmoq, na yo'l, Surgunlarga yuborildim, na ufq, na yo'l" Ammo biron tuhmat, tahdid bosimlar Shayxzodaning metin irodasini buka olmadi.

U Toshkent adabiy muhitida shoir, dramaturg, adabiyotshunos olim, tarjimon va pedagog sifatida shakllanib, o'zbek adabiyoti, adabiyotshunosligi va tarjima maktabi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdı.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Biz bugun ushbu maqolamizda adibning dramalari haqida fikr yuritamiz. Mo‘g‘ul istilosini davrida yuksak mahoratini namoyon etgan Jaloliddin haqida Shayxzodaga qadar bitorta adabiy asar yaratilmagan va sovet tarixchilarining asarlarida sarkardaning jasorati iliq so‘zlar bilan tilga olinmagan edi. Shunga qaramay, adib Shahobiddin Muhammad Nasaviyning "Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburni" hamda Alouddin Atomalik Juvayniyning "Tarixi jahongushoyi Juvayniy" kabi asarlarini o‘qib, shu asarlarda tasvirlangan tarixiy davr voqealari asosida o‘z asarini yozishga ahd qildi. Aytish lozimki, Jaloliddin sarkarda haqidagi eng noyob manbalardan biri Nasaviyning asaridir. Asarda Jaloliddin "Mangburni" deb atalgan. Uning ma'nosini "burnida xoli bor", "xoldor" deya talqin qiladilar. Biroq Maqsud Shayxzoda dramada tarixiy manbalardan farqli o‘laroq, Mangburni so‘zini Manguberdi tarzida tarjima qilgan va sarkarda hanuzgacha shu nom bilan xalqimiz qalbidadir.

"Jaloliddin Manguberdi" dramasini yaratish uchun ijodkor olti oylik ijodiy ta'til bilan Vodilga yuborishadi hamda asar tayyor bo‘lgach, uni zudlik bilan sahnalashtirish boshlanadi. O‘zbekiston xalq artisti Sora Eshonto‘rayeva drama haqida shunday deydi: "Shoir tilining falsafiyligi, hikmatli so‘zlarga boyligi va soddaligi, har bir obrazning yaxlitligi va mukammalligi, uning ustiga xoreografiya, yakka qo‘schiqlarni kiritib, ajoyib quyilma yaratish niyati - asarning barcha fazilatlari teatrning mashxur san'atkorlaridan tortib, sahna ishchilarigacha ma'qul keldi. Xullas, asar hammani o‘ziga shaydo qilib qo‘ydi".

Ta'kidlash lozimki, "Jaloliddin Manguberdi" dramasi Shayxzodaning ilk sahna asari bo‘lsa ham, muallif ichki ziddiyatlarga, keskin dramatizmga to‘la tarixiy voqealarni zo‘r mahorat bilan tasvirlagan. Biz har bir sahnada voqealarning shiddatli rivojini sezib turamiz, olis asrning nafasi bizga ufurib turgandek bo‘ladi, asar qahramonlari shu qadar yorqin chiqqanki, biz ularning hayotda ham aynan shunday odamlar bo‘lganiga umuman shubha qilmaymiz.

Drama ikkinchi jahon urushi yillarida yozilgani bois harbiy vatanparvarlik ohanglari, chet el bosqinchilariga qarshi kurash g‘oyalari, Vatanning muqaddasligi to‘g‘risidagi chaqiriqlar ancha keng o‘rin tutadi. Lekin asarning g‘oyaviy mazmunini

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

faqat shundan iborat qilib qo'yish noto'g'ri. "Jaloliddin Manguberdi" romantik ranglarga yo'g'rilgan tarixiy-falsafiy dramadir. Adib Jaloliddinning mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashini shunchaki ta'riflab, tasvirlash bilan cheklanmaydi, balki tarixiy jarayonni tahlil etadi. Jaloliddindek ulug' sarkardaning yengilish sabablarini ochishga intiladi. Haqiqatan ham o'sha kezlarda Sulton Muhammad Xorazmshohning saltanati Chingiz yo'lida duch kelgan davlatlar ichida eng qudratlisi edi.

Nega endi ana shunday qudratga ega bo'la turib, Chingiz istilosiga durustroq qarshilik ko'rsatilmadi, jang maydoniga chiqqan Jaloliddin esa, oxir-oqibatda, mag'lubiyatga uchradi? Bunday savolga javob topish, albatta, yozuvchining emas, tarixchining vazifasi. Ammo bu vazifani ham Shayxzoda zimmasiga olgan va voqealar oqimini, tarixiy shaxslar xarakterini tahlil qilish natijasida muayyan xulosalarga kelgan. Dramadan chiqadigan xulosa shuki, mamlakatni boshqaruvchi kuchlar o'rtasida ahillik bo'lмаган, nizolar va nifoqlar bu kuchlarni ichdan kemirgan, ittifoqning yo'qligi, avvalo, xalq hayotining barcha jabhalariga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Ikkinchidan esa, davlat taqdiri uchun mas'ul shaxslar aql-idrok, fahm-farosat bilan ish tutish, mamlakat boshiga kelayotgan xatarni donolik bilan bartaraf etish o'rniga manmanlikka beriladilar, xushomadgo'ylikni avj oldiradilar, hasadga beriladilar. Bu g'oyalar asarda qahramonlar xarakterining qat-qatiga singdirib yuborilgan. Dramada Sulton Muhammad Xorazmshoh "fahmi ko'r" hukmdor, el-ulus taqdiridan ko'ra o'zining izzat-nafsi ortiq ko'radigan kimsa sifatida namoyon bo'ladi. Ana shunday chirkinliklarga botgan saroyda faqat Jaloliddin sof edi, xushomadni bilmas, otasiga yoqish uchun yolg'on gapirmas edi. Eng muhimi, mamlakat taqdirini har narsadan ustun qo'yardi. Pyesaning so'nggidagi Jaloliddin monologi buni yorqin aks ettiradi:

"Kim yurtidan yovni quvsu, mendirman o'shal,
Ulug'vor niyatlarga kor qilmas ajal".

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Maqsud Shayxzodanining olimlik, muallimlik, tarjimonlik faoliyati bilan birga, dramaturglik faoliyati ham tahsinga sazovordir. "Jaloliddin Manguberdi", "Mirzo Ulug'bek" kabi tarixiy-falsafiy dramalari abadulabad yoshlarni vatanparvarlik, sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Adib o'z she'rida

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

aytganidek: Yo‘q, men o‘lgan emasman, Umrin yoqt piyola,

Hali to‘lgan emasman. Men yashayman bolamda, Ekib qo‘ygan dalamda. Dami sinmas qilichda, uchi so‘nmas qalamda. Agar o‘lsam, meni aslo qaro tufroqdan axtarmang, Yasharman ahli orif ko‘nglini mangu makon aylab,- deb yozganida naqadar haq edi Jaloliddin Rumiy hazratlari. Shunday ijodkorlar bo‘ladiki, ular vafotlaridan keyin ham nafaqat milliy adabiyot xazinasidan joy olgan asarlari, balki ajoyib insoniy fazilatlari va porloq obrazlari bilan ham xalq xotirasida abadiy yashaydilar. Maqsud Shayxzoda ana shunday nodir siymolardandir.

Adabiyotlar:

1. Jaloliddin Rumiy “Ichingdagi ichingdadir”
2. Naim Karimov. Maqsud Shayxzoda. T.: Sharq, 2009, B.133.
3. Haqiqat va go‘zallik navkari: [Maqsud Shayxzoda tavalludining 75 yilligi oldidan] // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 1983.